



QASHQADARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-iyun*



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **3515,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **33,4** ming kishiga yoki **1,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1507,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9 %**), qishloq aholisi soni **2008,7** ming kishi (**57,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3515,7 ming kishi

Tabiiy o'sish

+33,4 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- iyul holatiga

Shahar




42,9%

Qishloq



57,1%


Erkaklar



50,7%

1 781,1 ming kishi

Ayollar



49,3%

1734,6 ming kishi

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023- yil 1- iyul holatiga

9,7 %

Mehnatga layoqatli
yoshdan kattalar

56,0 %

Mehnatga layoqatli
yoshdagilar



34,3 %

Mehnatga layoqatli
yoshdan kichiklar

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **34,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3438,7	3515,7	102,2
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	286,3	292,7	102,2
Shahrisabz sh	143,7	145,9	101,5
G'uzor	214,4	219,5	102,4
Dehqonobod	154,5	157,7	102,1
Qamashi	283,2	289,6	102,3
Qarshi	261,9	268,3	102,4
Koson	300,5	307,9	102,5
Kitob	273,1	278,5	102,0
Mirishkor	125,2	127,8	102,1
Muborak	91,0	92,4	101,5
Nishon	160,7	164,3	102,2
Kasbi	205,6	210,3	102,3
Ko'kdala	178,2	210,3	102,3
Chiroqchi	258,5	263,6	102,0
Shahrisabz	228,6	232,3	101,6
Yakkabog'	273,3	279,2	102,2

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

21,2 ming kishi



O'g'il bola:

23,3 ming kishi


2023- yilning yanvar-iyun oylarida **44,5** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **52,4** % ni, qiz bolalar **47,6** % ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun





3 nafar va undan
ortiq egizak
0,1%


2 nafar egizak
2,2%




1 nafar
97,7%

2023- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:


-  1 nafar – **97,7%**
-  2 nafar – **2,2%**
-  3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qashqadaryo viloyat	42471	44474	104,7
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	4183	4521	108,1
Shahrisabz sh	1589	1607	101,1
G‘uzor	2730	2797	102,5
Dehqonobod	2099	2287	109,0
Qamashi	3681	3887	105,6
Qarshi	2951	3143	106,5
Koson	3745	4110	109,7
Kitob	2974	3057	102,8
Mirishkor	1489	1509	101,3
Muborak	956	944	98,7
Nishon	1959	2106	107,5
Kasbi	2457	2559	104,2
Ko‘kdala	587	2801	477,1
Chiroqchi	5520	3670	66,5
Shahrisabz	2101	1954	93,0
Yakkabog‘	3450	3522	102,1

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **44,5** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,6** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan plus **0,6** promillega ko‘paygan (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **25,0** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **8,0** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **5,0** promille).


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **41,4 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **5,5 %** i – o‘simtalardan, **19,5 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,8 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,3 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **23,5 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **9967** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **6,4** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **1,2** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar-iyun



2023- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **55,3** % i farzandsiz, **23,8** % i bitta farzand bilan va **20,9** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **4431** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **7494** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini - **3063** kishini tashkil etadi. 2022- yilning mos davrida -**3648** kishi bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, (kishi)




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,4** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **2,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan - **0,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **3,0** promille bo‘lgan).

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, (kishi)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida **7,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **5,1** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 75 221-15-84, 70-70